

**ALISHER NAVOI'S CONTRIBUTION TO SCIENCE
AND MEDICINE**

**ALISHER NAVOIYNING ILM-FAN VA TIBBIYOTGA
QO'SHILGAN XISSASI**

ВКЛАД АЛИШЕРА НАВОИ В НАУКУ И МЕДИЦИНУ

Nazarov Obid Raximovich

t.f.n., dots - Guliston davlat universiteti

E-mail: o.nazarov@mail.ru

Rayimjonov Ismoil Xoshimjon o'g'li

o'qituvchi - Guliston davlat universiteti

ismoil90yil@gmail.com

Abstract. As we know, every science, skill, experience, norm and value has its own origins. In fact, these origins are the product of human thought, and in the language of philosophers, they were formed and improved due to necessity and need in space and time. One of such early knowledge is the field of medicine, which has a rich history and has played an incomparably large role and importance in the historical development of mankind, and the first beginning of this field is the early medical knowledge and primitive medicine.

Initially, the region played an important role in the emergence of early medicine in Central Asia. Because in our country, the properties of medicinal plants and substances, their benefits and harms to the human body, have been studied since ancient times. As a result, people gradually accumulated a lot of information about medicine. They later became one of the important sources for the development of medical science and the creation of works in this field.

Key words. Early medicine, hospitals, "Dar ush-shifo", Timur's tuziks, Avaz Kermani, "sea of qualities", dome, "Ikhlosiya", "transparency", doctors, Abu Bakr Razi.

Аннотация. Как известно, каждая наука, навык, опыт, норма и ценность имеют свои истоки. Фактически, эти истоки являются продуктом человеческой мысли, и, говоря языком философов, они формировались и совершенствовались в силу необходимости и потребностей в пространстве и времени. Одним из таких ранних знаний является медицина, которая имеет богатую историю и сыграла несравненно большую роль и значение в историческом развитии человечества, а истоки этой области лежат в ранних медицинских знаниях и примитивной медицине.

Изначально этот регион сыграл важную роль в становлении ранней медицины в Центральной Азии. В нашей стране свойства лекарственных растений и веществ, их польза и вред для человеческого организма изучались с древних времен. В результате люди постепенно накопили большой объем информации о медицине, которая впоследствии стала одним из важных источников для развития медицинской науки и создания трудов в этой области.

Ключевые слова. Ранняя медицина, больницы, «Дар уш-шифо», тузики Тимура, Аваз Кермани, «море качеств», купол, «Ихлосия», «прозрачность», врачи, Абу Бакр Рази.

Ilk tabobat, kasalxonalar, "Dor ush-shifo", Temur tuziklari, Avaz Kermoniy, "xosiyatlar dengizi", gumbaz, "Ixlosiya", "shaffofiya", tabiblar, Abu bakr Roziy.

Kirish. Bizga ma'lumki, har bir ilm, ko'nikma, tajriba, me'yor va qadriyatlarning o'z ibtidolari mavjud. Aslida bu ibtidolar inson tafakkurining mahsuli bo'lib, faylasuflar tili bilan aytganda, makon va zamonda zarurat, ehtiyoj tufayli shakllangan va takomillashib borgan. Ana shunday dastlabki bilimlardan biri o'zining boy tarixiga ega bo'lgan, insoniyat tarixiy taraqqiyotida beqiyos katta o'rin va ahamiyat kasb etgan tibbiyot sohasi va mazkur sohaning ilk ibtidosi bo'lgan dastlabki tibbiy bilimlarva ibtidoiy tabobatchilik hisoblanadi.

Dastlab O'rta Osiyoda ilk tabobatning yuzaga kelishida hududning muhim o'rni bor. Chunki yurtimizda qadimdan dorivor o'simliklar va moddalarning

xususiyatlari, ularning kishi organizmiga yetkazadigan foyda va zararlari o'rganilgan. Natijada, xalq qo'lida asta-sekin tibbiyotga oid ko'pgina ma'lumotlar yig'ilib borgan. Ular esa keyinchalik tibbiyot ilmi va shu sohaga oid asarlar yaratishda muhim manbalardan biri bo'lgan.

Tadqiqod obyekti va qo'llaniladigan metodlar. Shu boiz mazkur soxani rivojlanishida Alisher Navoiyning zamonida yashagan va Hirotning turli shifoxonalarida ishlab, talabalarga tib ilmidan dars bergan mashhur tabiblardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tishni lozm topdik. Jumladan Darvesh Ali chuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lgan hakim edi. Tarixchilarning yozishicha, u kamtarin, xushfel va yoqimtoy kishi bo'lgan. Darvesh Alida shoirlik iste'dodi ham kuchli bo'lgan. U ba'zi tibbiy asarlarni nazm bilan yozgan. Darvesh Ali Hirotdagi "Dor ush-shifoh" ("Davo maskani") kasalxonasiga rahbarlik qilgan va shu yerda talabalarga tibbiyotdan dars bergan. Uning "Kishilarga eslatma" nomli tibbiy asari mavjud. Bu asarda muallif salomatlikni saqlash va kasallikni davolash haqida so'z yuritadi.

Shuningdek, nomdor tabib Mavlono Nizomiddin Abdulxay ham o'z zamonasida amaliy tibbiyotda yuksak tajribali va bilimdon mutaxassis bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u Navoiyning shaxsiy tabibi va yaqin kishisi bo'lgan. Shayx Husayn mohir jarroh bo'lgan. U marakkab jarrohliklarni ham qila olgan. Tabib bemorni jarrohlik amaliyotini qilishda og'riqsizlantiruvchi modda ishlatgan va joyini tikishda qo'y ichagidan tayyorlangan tor (ip) ishlatgan. Sharq mamlakatlarida, xususan, O'rta Osiyo shaharlarida shifoxonalar qoshidagi dorixonalardan tashqari alohida joylashgan dorixonalar ham bo'lgan. Ularda tabiblarning retseptlari bo'yicha bemorlarga dori tayyorlab berilgan. Shunday dorixonalardan biri haqida Alisher Navoiy bunday ma'lumot bergan: "Hirotda Hoji Ali Hasan Kirmoniy ismli dorishunos yashaydi. Uning dorixonasi bor. U o'z kasbiga juda mas'uliyat bilan qaraydi. Dorilarni mohirlik bilan tayyorlaydi"[1].

Demak, Husayn Boyqaro davrida mamlakatda ilm-fan, ayniqsa, tibbiyotning rivojlanishi bevosita Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu haqida Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining mashhur "Boburnoma" asarida quydagicha yozgan edi: "Fan va sa'nat ahllarini Alisherbekdek qo'llab-quvvatlagan odam bo'lmagan... Xalq uchun foydali binolarni Navoiydek ko'p qurdirgan odam bo'lmasa kerak".[2]

Olingan natijalar va ularning tahlili. Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan tarixiy ma'lumotlar asosida biz Temur va temuriylar davrida mamlakatdagi umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham yaxshi rivoj topganining guvohi bo'ldik. Shaharlarda kasalxonalar, tibbiy maktablar, kutubxonalar qurildi. O'nlab mashhur tabiblar yetishib chiqdi. Ular bemorlarni davolash bilan birga, tibbiyotga oid ilmiy asarlar ham yozishgan. Bu nodir va noyob asarlarni o'rganish, ularni bugungi kun tibbiyot rivojiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, Husayn Boyqaroning bosh vaziri Alisher Navoiy edi. U ko'p jihatdan tibbiyotga yaqin kishi bo'lgan. O'zi ham tibbiyotni yaxshi bilgan. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha Navoiy tabiblik kasbi bilan shug'ullanmagan bo'lsa ham tibbiy bilimdan yaxshi xabardor bo'lgan. Navoiy Samarqandda mashhur olim Fazlulloh Abulaysiy (Abu Lays) rahbarlik qilgan madrasada tahsil olgan. Bu olim tibbiyot sohasida ham chuqur bilimga ega bo'lgan. U Navoiyning ustozini hisoblanadi.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'sha davrda madrasalarda boshqa fanlar qatorida tibbiyot ilmi ham o'qitilgan. Binobarin, Navoiy madrasani tugatganida tibbiyot fanidan ham bilimga ega bo'lib chiqqan. Tarixiy dalillar shuni ko'rsatadiki, Navoiy tibbiyotni juda qunt bilan o'rgangan va bu sohada o'z mulohaza va fikrlariga ega bo'lgan. Navoiy tibbiyot, sog'ilqni saqlash masalalari va tabiblar haqida juda to'g'ri fikr yuritgan. Navoiyning bu masalaga oid fikrlari uning mashhur asari "Mahbub ul-qulub" ("Sevgili qalblar")da o'z ifodasini topgan. Bu kitobda Navoiy tibbiyot va tabiblar masalasiga maxsus bob (15-bobni) bag'ishlagan. Kitob Navoiy hayotining so'nggi davrida yozilgan. Bu vaqtga kelib, shoir juda katta hayotiy va ilmiy tajriba orttirgan edi. Kitobda shular umumlashtirilgan. Xususan, unda Navoiyning siyosiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlari bayon etilgan. Navoiyning dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabati insonparvarlik, adolat, odam haqida g'amxo'rlik qilish, salomatlik va xalq farovonligiga asoslangan edi. Shuning uchun kitobda tibbiyot va tabiblar haqidagi masala yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Kitobda Navoiy inson salomatligi va tabiblar haqida so'z yuritib, dastlab tabibning o'zi qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozim, degan masalaga to'xtaladi. Navoiyning ta'kidlashicha, tabibda birinchi galda bu kasbga qobiliyat va intilish bo'lmog'i lozim. U o'z kasbini a'lo darajada egallashi kerak. Bundan tashqari tabibda kishilarga nisbatan jonkuyarlik, mehribonlik va samimiylilik bo'lishi shart. U

muloyim soʻz, ochiqkoʻngil va kamtarin boʻlmogʻi darkor. Bundan koʻrinib turibdiki, Navoiy tabiblar oldiga juda masʼuliyatli talablar qoʻygan.

Alisher Navoiy mamlakatda tibbiyot ilmi va sogʻliqni saqlash ishlarining rivojlanishiga juda katta hissa qoʻshgan. Tibbiy muassasalar ochish va ularni rivojlantirish ishiga rahbarlik qilgan. Yaxshi bilim va tajribali hakimlar yetishtirish masalasiga alohida ahamiyat bergan. Xususan, madrasalarda tib ilmini oʻqitish va maxsus tibbiy maktablar ochish ishiga shaxsan boshchilik qilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda Navoiy faqat tashabbuskor boʻlibgina qolmay, u oʻz mablagʻlarini ham sarflagan. Masalan, oʻziga qarashli yerlardan tushadigan daromadlarning bir qismini kundalik xarajatlar uchun olib qolib, qolganini shu qurilishlarga sarf qilgan. Mamlakatning oʻsha vaqtdagi poytaxti Hirot shahrida, ayniqsa, katta qurulish ishlari olib borilgan. Bu yerda barpo etilgan binolar qatorida kasalxona va shifoxonalar ham boʻlgan. Ularda bilimdon va tajribali hakimlar xizmat qilganlar. Baʼzi kasalxonalar qoshida maxsus tibbiy maktablar ham boʻlgan. Navoiy madrasa va tibbiy maktablarda xizmat qiluvchi olim va hakimlar haqidadoim gʻamxoʻrlik va homiylik qilib turgan. Bu haqida mashhur tarixchi Xondamir (Giyosiddin ibn Humomiddin) oʻzining “Makorim ul-axloq” nomli kitobida bunday deb yozgan: “Navoiy zafarli sohibqironning (Husayn Boyqaro) podshohlik davrida atoqli olimlar va hurmatga loyiq fozil kishilarning darajalarini yuksaltirish va martabalarini oshirishga qolidan kelganicha saʼyi harakat qildi. Talabalarning tinch va tashvishsiz ilm olishlari uchun ularga nafaqalar belgilab, madrasa va xonaqohlar bino qildi”. [3]

1480–1482-yillarda Alisher Navoiyning shaxsan tashabbusi bilan uning sarmoyasiga Hirotida maxsus tibbiy majmua (kompleks) barpo etildi. Bu majmua “Shifoiya” nomli kasalxona, “Ixlosiya” nomli madrasa va “Safohiya” nomli hammomdan iborat edi. “Shifoiya” qoshida tibbiy maktab ham boʻlgan. Bu majmua haqida Xondamir bunday maʼlumot bergan: “Bu binolar shahar chekkasida, Injil kanali boʻyidagi koʻrkam va bagʻoyat bahavo joyda qurilgan. Jomiy madrasasining janub tarafida bagʻoyat latofat va nazokat bilan “Shifoiya” qurilgan. Oʻsha jannatmisol binolar oraligʻida kavsar misol bir hovuz ham qurilgan boʻlib, Xizрмаqom hakimlar hamda Iso damlik tabiblar doimo gʻariblar va bemorlarni muolaja qilish bilan mashgʻuldirlar”. [4]

Tibbiy majmuaga hammomning kiritilgani tasodifiy emas. Hammomga faqat odamlar yuvinadigan joy emas, shu bilan birga salomatlikni mustahkamlovchi omil ham, deb qaralgan. Hammomda ba'zi muolaja usullari ham amalga oshirilgan.

Va nihoyat Alisher Navoiy raxnomaligida Muhammad Muin, Qutbiddin Odim, G'iyosiddin Muhammad, Darvesh Ali, Abdulhay Tuniy, Nizomiddin Abdulhay, Sulton Murod, Shayx Husayn, Shomiy Tabib kabi tibbiyot ilmining ko'zga ko'ringan vakllari nafaqat O'rta Osiyo balki, jahon tibbiyot ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar sifatida shuhrat qozonganlar.

Xulosa. Xullas yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, Alisher Navoiy bosh vazir va o'z zamonasining eng ilg'or kishisi sifatida mamlakatda hamma bilimlar, shu jumladan, tibbiyot ilmining ham ravnaq topishi uchun ko'p mehnat sarf qildi. Uning ko'rsatmalari va bevosita ishtiroki bilan ko'plab shifoxonalar, kasalxonalar va tibbiy maktablar barpo etildi, ko'p bilimdon tajribali hakimlar yetishtirildi. Tibbiyot ilmi o'z davri darajasida rivoj topdi. Ammo, bu sohada hamma ish ko'ngildagidek edi, deb bo'lmaydi. Shifoxonalar unchalik ko'p emas edi. Ular ko'proq katta shaharlarda joylashgan edilar. Shuning uchun aholi, xususan, mamlakat aholsining ko'pchiligini tashkil etgan qishloq aholisi tibbiy yordam bilan toliqta'min etilmagan bo'lsada, buyuk temuriylar davrida tibbiyot o'z rivojlanishida yuksak darajaga ko'tarilganligi tarixdan ma'lum.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2004.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2005.
3. О. Назаров. Фан ва техника тарихи. – Тошкент, 2022.
4. Романюк В.П., Лучкевич В.С., Самодова И.Л. История мировой и отечественной медицины: учебное пособие. – СПб.: СПбГМА им. И.И. Мечникова, 2010.
5. Сорокина Т.С. История медицины: Учебник для студ. мед. вузов. 3-изд. – М., 2004.
6. Кузьмин М.К. История медицины. – М.: Медицина, 1981.

7. Ли Б.Н. Халқ тиббиёти. – Тошкент, 2008 й., 179-бет.
8. Бородулин Ф.Г. История медицины. Избранные лекции. – М.: Медицина, 1961.
9. Болтаев М. Н. Абу Али ибн Сина великий мыслитель, учёный-энциклопедист средневекового Востока. – Т., 1980.
10. Джумаев В. К. Хирургия Абу Али ибн Сины и её исторические истоки. – Т., 1965.
11. Сагадеев А. В. Ибн Сина (Авиценна). – М., 1980.
12. Мажидов Н. М., Ҳалимова Х. М., Мажидова Ё. Н. Абу Али ибн Сино неврологияси. – Т., 2002.